



UDK: 378.147:81'42

Dilbar SHOMURADOVA,

PhD, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: dilbarhon1984@mail.ru, ORCID: 0009-0004-5850-2692

O'zDSMI professori v.b., f.f.d G.Isakova taqrizi asosida

KASBIY DISKURS VA ESP INTEGRATSIYASINING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Annotsatsiya

Ushbu maqolada kasbiy diskurs va ESP (English for Specific Purposes) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda ularning zamonaviy tilshunoslik va chet tillarni o'qitish metodikasidagi o'rni yoritilgan. Kasbiy muloqotning lingvistik, pragmatik va kommunikativ xususiyatlari tahlil qilinib, ESP ta'limida kasbiy diskurs elementlari, autentik matnlar va terminologik birliklardan foydalanishning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, kasbiy diskurs ESP ta'limining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, tilni real kasbiy faoliyat bilan bog'lash hamda samarali muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: kasbiy diskurs, ESP, kommunikativ kompetensiya, pragmatika, terminologiya, autentik materiallar.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE INTEGRATION OF PROFESSIONAL DISCOURSE AND ESP

Annotation

This article examines the interrelation between professional discourse and ESP (English for Specific Purposes), as well as their role in modern linguistics and foreign language teaching methodology. The linguistic, pragmatic, and communicative features of professional communication are analyzed, and the importance of using elements of professional discourse, authentic texts, and terminological units in ESP instruction is substantiated.

It is also concluded that professional discourse is an essential component of ESP, contributing to the development of learners' professional communicative competence, linking language learning with real professional activities, and forming effective communication skills.

Keywords: professional discourse, ESP, communicative competence, pragmatics, terminology, authentic materials.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕГРАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ДИСКУРСА И ESP

Аннотация

В данной статье рассматривается взаимосвязь профессионального дискурса и ESP (English for Specific Purposes), а также их роль в современной лингвистике и методике преподавания иностранных языков. Анализируются лингвистические, прагматические и коммуникативные особенности профессионального общения, обосновывается важность использования элементов профессионального дискурса, аутентичных текстов и терминологических единиц в обучении ESP.

Также делается вывод о том, что профессиональный дискурс является важной составляющей ESP, способствующей развитию профессиональной коммуникативной компетенции обучающихся, связыванию изучения языка с реальной профессиональной деятельностью и формированию эффективных коммуникативных навыков.

Ключевые слова: профессиональный дискурс, ESP, коммуникативная компетенция, прагматика, терминология, аутентичные материалы.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda kasbiy faoliyat samaradorligi mutaxassislar o'rtasidagi muloqot va axborot almashinuvi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayonda kasbiy diskurs muhim o'rin tutadi. U muayyan soha vakillari o'rtasida bilim va tajriba almashinuvini ta'minlash, kasbiy munosabatlarni tartibga solish hamda hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kasbiy diskurs mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi, chunki har bir kasb o'ziga xos terminologik tizim va kommunikativ me'yorlarga ega.

Kasbiy diskurs turli sohalarida o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi: tibbiyotda aniq terminlar va diagnostik tavsiflar, huquqda rasmiy-uslubiy ifodalar, san'at va madaniyat sohasida esa ijodiy jarayonni ifodalovchi maxsus terminlar keng qo'llaniladi. Masalan, teatr amaliyotida "sahna ifodasi", "badiiy obraz" va "emosional ifoda" kabi tushunchalar rejissyor

va aktyorlar o'rtasidagi professional muloqotni ta'minlab, ijodiy jarayonni aniq va samarali ifodalashga xizmat qiladi.

Kasbiy diskursning asosiy xususiyatlari qatoriga uning maqsadga yo'naltirilganligi, maxsus terminologiyaga egaligi, rasmiylik darajasining yuqoriligi va kasbiy etika tamoyillariga asoslanishi kiradi [3]. Bundan tashqari, u og'zaki va yozma shakllarda namoyon bo'lib, ilmiy maqolalar, hisobotlar, xizmat yozishmalari, ma'ruzalar, muzokaralar va ish uchrashuvlari ko'rinishida amalga oshiriladi. Kasbiy diskurs professional hamjamiyat vakillarining o'zaro muloqotini ta'minlaydigan, kasbiy bilim va tajribaning uzatilishiga xizmat qiladigan hamda muayyan sohaning kommunikativ madaniyatini aks ettiradigan murakkab lingvistik va ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Hozirgi globallashuv sharoitida xorijiy tillarni o'qitishda kommunikativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ESP (English for

Specific Purposes), ya'ni maxsus maqsadlar uchun ingliz tilini o'qitish yo'nalishi o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan til va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Bu jarayonda kasbiy diskurs markaziy o'rin tutadi, chunki ESP dasturlari real kasbiy vaziyatlar, terminologik birliklar va nutqiy strategiyalarga asoslanadi. Shu sababli ESP ta'limining samaradorligi o'quvchilarning kasbiy diskursni tushunish va amaliyotda qo'llash darajasiga bog'liq hisoblanadi. Kasbiy diskurs ESPning nazariy va amaliy asoslaridan biri bo'lib, u o'quv dasturlarini ishlab chiqishda muayyan soha vakillarining muloqot ehtiyojlari, kasbiy matnlar va kommunikativ shakllarni tahlil qilishni taqozo etadi. Natijada o'quvchilar o'z mutaxassisliklariga oid terminologiyani o'zlashtiradi hamda professional muloqotda samarali ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, kasbiy diskursni o'rganish ESP ta'limining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Kasbiy diskursning lingvistik, pragmatik va kommunikativ xususiyatlarini tahlil qilish o'quvchilarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga, ularni real ish muhitida samarali muloqot qilishga tayyorlashga xizmat qiladi. Demak, ESP va kasbiy diskurs o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularning uyg'unligi zamonaviy mutaxassislarni xalqaro professional maydonda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlashning muhim omillaridan biridir.

Kasbiy diskurs va ESP zamonaviy tilshunoslik hamda chet tillarni o'qitish metodikasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohada olib boriladigan tadqiqotlarda nazariy, qiyosiy, diskurs va kontent-tahlil kabi metodlardan foydalanilib, ular kasbiy muloqotning lingvistik va pragmatik xususiyatlarini o'rganish, ESP ta'limidagi o'rni aniqlash hamda ilmiy qarashlarni umumlantirishga xizmat qiladi. Xususan, diskurs tahlili nutqiy strategiyalar va kommunikativ maqsadlarni ochib bersa, kontent-tahlil kasbiy matnlardagi terminologik birliklar va janr xususiyatlarini yoritadi, qiyosiy tahlil esa turli sohalardagi kasbiy diskurslarning o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash imkonini beradi.

O'zbek tilshunosligida ham kasbiy diskurs va kommunikativ yondashuv masalalari tadqiq etilgan bo'lib, Shavkat Safarovning ishlari bu borada muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. U tilning qo'llanishini kommunikativ maqsad, nutq vaziyati va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq holda tahlil qiladi [5]. Shuningdek, ESP nazariyasining shakllanishida Tom Hutchinson va Alan Watersning ilmiy qarashlari muhim o'rin tutadi. Ular ESPni o'quvchilarning kasbiy va akademik ehtiyojlariga asoslangan yondashuv sifatida talqin qilib, uning asosiy maqsadi o'quvchini real kasbiy faoliyatga tayyorlash ekanligini ta'kidlaydilar. Shu sababli ESPda ehtiyojlar tahlili metodi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'quvchilarning kasbiy kommunikativ ehtiyojlarini aniqlash va ta'lim mazmunini belgilashga xizmat qiladi.

Kasbiy diskurs nazariyasining rivojlanishida John Swalesning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Olim diskursni ma'lum maqsad va qadriyatlarga ega bo'lgan professional hamjamiyat faoliyati bilan bog'liq kommunikativ hodisa sifatida izohlaydi. Uning "discourse community" konsepsiyasi kasbiy diskursni o'rganishning muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi [4].

Diskurs tahlili sohasida Norman Fairclough diskursni ijtimoiy amaliyot sifatida talqin qilib, tilning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishdagi rolini ta'kidlaydi. Uning yondashuvi kasbiy diskursni nafaqat lingvistik, balki

ijtimoiy va madaniy hodisa sifatida ham o'rganish imkonini beradi, bunda til tanlovi va kommunikativ strategiyalar kasbiy maqom hamda ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog'liq ekaniga asoslanadi [2].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili ESP va kasbiy diskurs o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. ESP real kasbiy muloqotga tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lsa, kasbiy diskurs ushbu jarayonning lingvistik va kommunikativ modelini ta'minlaydi. Shu sababli ESP ta'limida autentik matnlar, kasbiy hujjatlar va turli janrdagi professional materiallardan foydalanish muhim metodik ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Kasbiy diskurs va ESP o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish jarayonida kasbiy muloqotning lingvistik, pragmatik va kommunikativ xususiyatlari o'rganiladi. Tahlil natijalari kasbiy diskurs ESP ta'limining muhim tarkibiy qismi ekanini ko'rsatadi. Kasbiy matnlar tarkibida terminologiyaning ko'pligi, rasmiy uslub, qisqa va aniq sintaktik tuzilmalar hamda mantiqiy izchillik ustunlik qilishi ESPda autentik materiallardan foydalanish zarurligini asoslaydi.

ESP va umumiy ingliz tili o'rtasida farq mavjud bo'lib, ESP aniq kasbiy ehtiyojlar, maxsus terminologiya va real kommunikativ vaziyatlarga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Shu sababli kasbiy diskurs ESPning markaziy asoslaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Kasbiy diskurs elementlari o'quv jarayoniga integratsiya qilinganda til birliklarini amaliy qo'llash, kasbiy muloqotga moslashish va kommunikativ vaziyatlarni to'g'ri anglash imkoniyati kengayadi. Shuningdek, kasbiy muloqotda kommunikativ strategiyalar, pragmatik moslashuv, aniqlik va lo'ndalik tamoyillari muhim o'rin egallaydi. Bunday xususiyatlar real kasbiy faoliyatda samarali muloqot yuritish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. ESP ta'limida kasbiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar o'quvchilarning faolligini oshiradi hamda ularning kasbiy qaror qabul qilish va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi [10].

O'zbek tilshunosligida diskurs va pragmatik yondashuvlarga oid ilmiy qarashlar kasbiy muloqotning vaziyatga bog'liqligi va kommunikativ maqsadga yo'naltirilganligini tasdiqlaydi. Bu esa kasbiy diskursda til birliklari faqat grammatik tizim asosida emas, balki kommunikativ vaziyat va maqsadga muvofiq ravishda qo'llanishini anglatadi.

Xulosa. Kasbiy diskurs va ESP o'rtasidagi bog'liqlik ularning o'zaro uzviy integratsiyalashgan tizim ekanligini ko'rsatadi. Kasbiy diskurs real professional muhitda qo'llaniladigan lingvistik va kommunikativ vositalar majmuasini ifodalasa, ESP esa aynan shu muhitga tayyorlovchi maxsus til o'qitish yondashuvi sifatida namoyon bo'ladi. Tahlillar ESP ta'limida kasbiy diskurs elementlaridan foydalanish o'quvchilarning terminologik bilimlarini mustahkamlash, kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish hamda real kasbiy vaziyatlarda samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Ayniqsa, autentik materiallar va kasbiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar ta'lim samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, kasbiy diskurs ESP ta'limining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u tilni kasbiy faoliyat bilan bog'lash, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish va zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Dudley-Evans T., St John M.J. Developments in English for Specific Purposes. Cambridge: Cambridge University Press, 1998. - 301 p.

2. Fairclough N. *Language and Power*. London: Routledge, 1989. - 259 p.
3. Hutchinson T., Waters A. *English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach*. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. - 183 p.
4. Swales J. *Genre Analysis: English in Academic and Research Settings*. Cambridge: Cambridge University Press, 1990. - 260 p.
5. Safarov Sh. *Pragmalingvistika*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008. - 280 b.
6. Shomuradova D.A. Nutq faoliyati turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish. Toshkent davlat pedagogika universiteti “Ilmiy axborotlari” ilmiy-nazariy jurnali, 2023, №1, 402–408-b.
7. Shomuradova D.A. Kasbga yo‘naltirilgan muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2024, №9, 604–608-b.
8. Shomuradova D.A. The importance of CLIL method in improving professional English teaching technologies in non-philological educational directions. *International Journal of Pedagogics*, Vol. 5, Issue 2, 2024, 216–219-b.
9. Shomuradova D.A. Mustaqil ta‘limda kasbga yo‘naltirilgan muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish vositalari. *Uchenyy XXI veka*, 2024, №3–4 (104), 74–76-b.
10. Shomuradova D.A. Talabalarda o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirishda mashq va topshiriqlardan foydalanish. *Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies, Moscow, 2024, Vol. 3, No. 9, 25–29-b.*